

#Alisher\_Navoiy\_tavalludining\_583\_yilligi

#ekspert\_fikri

## **ALISHER NAVOIY IJODI VA YOSHLAR**

*“Alisher Navoiy asarlari asosida zamonaviy badiiy filmlar, seriallar, multfilmlar, hatto ijtimoiy tarmoqlarda qiziqarli kontentlar yaratish orqali yoshlar tasavvurida o‘z zamonasining ilg‘or, ilgari surgan fikrlari, g‘oyalari hamon dolzarb shaxs timsolini yaratishga e’tibor qaratish lozim”.*

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabining malakali pedagogi, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Kamoliddin Marasulov bilan Alisher Navoiy adabiy merosi va yoshlar borasidagi suhbatimizda shu kabi qiziqarli takliflar, zamonaviy yondashuvlar o‘rtaga tashlandi.

**O‘qituvchilik faoliyattingiz, shaxsiy kuzatuvlaringizdan kelib chiqib, bugungi kunda yoshlarning Navoiy ijodi va umuman olganda o‘zbek mumtoz adabiyotiga qiziqishini qanday baholaysiz?**

- Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, yoshlar orasida Alisher Navoiy ijodiga, uning ma’naviy merosiga nisbatan qiziqish unchalik yuqori emas. Biz o‘zimizni aldamasligimiz zarur. Demak, Alisher Navoiy ijodini yoshlar ongiga singdirish uchun yangicha, zamonaviy yondashuvlar talab etiladi. Xususan, Navoiy ijodini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda soddalashtirish, ya’ni barcha uchun tushunarli tarzda uning ijod namunalarini bugungi o‘zbek tiliga tabdil qilish lozim.

Navoiy asarlari asosida zamonaviy badiiy filmlar, seriallar, multfilmlar, hatto ijtimoiy tarmoqlarda qiziqarli kontentlar yaratish orqali yoshlar tasavvurida o‘z zamonasining ilg‘or, ilgari surgan fikrlari, g‘oyalari hamon dolzarb shaxs timsolini yaratishga e’tibor qaratish lozim.

Navoiy ijodi bo‘yicha yoshlar orasida shaffof va ochiq ko‘rik-tanlovlar tashkil qilish, ushbu tanlovlarning eng chekka hududlargacha yetib borish choralarini ishlab chiqish kerak.

Shogirdlaringiz orasida aynan Navoiy ijodiga haqiqiy muxlis bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilaringiz bormi?

-Men 13 yildan beri pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanib kelmoqdaman va o‘tgan davr mobaynida ko‘plab o‘quvchi yoshlarning ustoziga aylanish nasib qildi. O‘zim ta’lim bergen o‘quvchilar orasida Alisher Navoiy shaxsiga, ijodiga muxlis bo‘lgan yoshlarni uchratdim. Ular orasida g‘azal yozadigan, ruboiy bitadiganlari

ham, hatto tuyuq yaratishga intiladiganlari-da borligi odamni quvontiradi. Lekin aynan muayyan ismni keltirmagan bo‘lardim, agar kimnidir ismini aytSAM, boshqa kimdir xafa bo‘lishidan xavotirdaman, ochig‘i.

O‘quv mashg‘ulotlarida yoshlarni o‘zbek tili va adabiyoti, xususan mumtoz adabiyotga oid bilimlarini boyitishda qanday usullardan foydalanib kelmoqdasiz?

- Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda zamonaviy usullardan foydalanaman. Masalan, o‘quv mashg‘ulotlari davomida mumtoz yoki zamonaviy qo‘shiqlarni qo‘yib berib, o‘quvchilardan ushbu qo‘shiq matnini yaratishni (ya’ni eshitganini qog‘ozga tushirishni) so‘rayman. Tabiiyki, bir qancha so‘zlar o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lib chiqadi. Ana shunda o‘sha so‘zlar izohini o‘rgatish orqali ular leksikonini yana ham boyitishga intilaman. Masalan, Sherali Jo‘rayevning “Bandaman” qo‘shic‘ini tinglasak, unda shunday o‘rinlar mavjud:  
Jonni berdim biryo‘la yo‘lingda men,  
Ishqing bila to qiyomat zindaman.

Ushbu jumladagi “zindaman” so‘zini deyarli ko‘pchilik anglamaydi. Uni tushunish uchun fors-tojik tilini mumtoz adabiyot doirasida tushunish talab etiladi. Zinda – tirik ma’nosini anglatadi. Hatto Boborahim Mashrab ayni taxallus bilan ijod qilgani ma’lum.

Yoki:

Muhriddin Xoliqov ijodida:

Tog‘-u toshlarning chiroyi lola, gul, ohu bilan,  
Xasta ko‘nglimning quvonchi ul kamon abro‘ bilan.

Yuqoridagi jumlanı eshitgan o‘quvchi katta ehtimol bilan “abro” so‘zini “obro” tarzida yozadi. Bu esa xato. Negaki “abro” ayni misrada qoshni ifodalab kelmoqda va u yuqoridagi tarzda yozilishi kerak.

Mumtoz adabiyot namunalarini ham shu tarzda, sodda qilib, asarlarni bugungi kunga tabdil qilgan holda o‘quvchilarga yetkazilsa va o‘qituvchi yurakdan mumtoz adabiyotga – asarlarga qiziqishini ko‘rsata olsa (Zero, muallimning o‘zi qiziqmasa o‘rgatishga urinish befoyda bo‘lib chiqadi), ayni muddao bo‘lar edi.

Masalan, Alisher Navoiyning ruboysi:

Jonimdagи “jim” ikki dolingga fido,  
Andin so‘ng “alif” toza niholingga fido,  
Nuni dog‘i anbarin hilolingga fido,  
Qolgon iki nuqta ikki xolingga fido.

Ruboiy arab harflari kalligrafiyasidan foydalangan holda tushuntirilsa, qolaversa, unlilarga (ayniqsa, cho'ziq unlilarga) urg'u berilganligi ta'kidlab izohlansa, arab alifbosidagi harflarning mumtoz lirikadagi o'rniga doir qiziqarli ma'lumotlar berilsa, ayonki, o'quvchi bitta darsning o'zida ushbu ruboiyni izohlari bilan yodlab olishi tabiiy, deb o'ylayman.

Ilg'or texnologiyalar, global axborot asrida ba'zi yoshlarda "ma'naviy dunyoqarash muhim emas" degan fikrlar ham yo'q emas. Ma'naviy dunyoqarashni esa birinchi navbatda adabiyot shakllantiradi. Shu haqda fikrlaringiz?

Donishmandlarning "Tarbiya nasihat emas, ibratdir", degan fikrlari bor. Shuni inobatga oladigan bo'lsak, albatta, birinchi navbatda o'zimiz namuna bo'lishimiz talab etiladi. Biz aybni yoshlardan qidirishimiz – xato. Ayb siz-u bizda. Nima uchun chunki, ma'naviyat dargohlariga biz kattalarning munosabati qanday? Nima uchun aynan biz adabiyotdan uzoqmiz? Aslida esa, namuna – o'rnak bo'lishimiz, teatrlarga tez-tez borishimiz, kutubxonalarda kitob mutolaa qilishimiz, mashinamizda saviyali qo'shiqlarni tinglashimiz juda muhim. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar masalasini ham o'rganish kerak. Sir emaski, deyarli ko'pchiligidan yangilikni ham, trend mavzularni yaxshi tarmoqlardan olyapmiz. U yerda esa cheklovlar yo'q, shundan kelib chiqib aytmoqchimanki, yoshlarni ayplashdan shaxsan men yiroqman. Ular bugungi kun bilan yashayaptilar, xolos.

**Ma'lumot o'rnida:** Kamoliddin Marasulov,  
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,  
Bilim va malakalarni baholash agentligi eksperti.

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi**  
**Axborot xizmati**